



**YER RESURSLARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING
USTUVOR YO'NALISHLARI**

Safieva Nigora Nurmaxamadovna
Guliston davlat universiteti

Annotatsiya. "O'zbekiston-2030" strategiyasida qishloq xo'jaligida hosildorlik va rentabellik darajasini keskin oshirish maqsadiga erishish borasida bir gektardan olinadigan o'rtacha daromadni 5 ming dollarga etkazish, qishloq xo'jaligi sohasida eksport hajmini yiliga 10 milliard dollarga etkazish, hosildorlik ko'rsatkichlarini paxta bo'yicha o'rtacha 45-50 tsentnerga, g'alla bo'yicha - 80-85 tsentnerga etkazish kabi vazifalar ijrosini ta'minlash ko'zda tutilgan. Bu kabi vazifalarning amaliy ijrosi birinchi navbatda, sug'oriladigan yerlardan foydalanish holatiga bog'liq. Shundan kelib chiqqan holda, mazkur maqolada sug'oriladigan yerlardan foydalanishni takomillashtirish borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: milliy xo'jalik, iqtisodiyotning tarmoq tuzilmasi, qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti, qishloq xo'jaligi resurslari, agrosanoat majmui, yer resurslari, sug'oriladigan yerlar, yer munosabatlari, yer ijerasi.

**ПРИОРИТЕТНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УЛУЧШЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ
ЗЕМЕЛЬНЫХ РЕСУРСОВ**

Сафиева Нигора Нурмухамадовна
Гулистанская государственная университет

Аннотация. Стратегия "Узбекистан – 2030" предусматривает реализацию таких задач, как доведение среднего дохода с одного гектара до 5 тысяч долларов с точки зрения достижения цели резкого повышения производительности и рентабельности в сельском хозяйстве, доведение объема экспорта в аграрном секторе до 10 миллиардов долларов в год, доведение показатели производительности в среднем 45-50 центнеров с хлопка, 80-85 центнеров с зерно, практическая реализация таких задач зависит в первую очередь от состояния использования орошаемых земель. Из этого следует, что в этой статье речь пойдет об улучшении использования орошаемых земель.

Ключевые слова: национальная экономика, отраслевая структура экономики, аграрная экономика, сельскохозяйственные ресурсы, агропромышленный комплекс, земельные ресурсы, орошаляемые земли, земельные отношения, аренда земли.

PRIORITY AREAS FOR IMPROVING THE USE OF LAND RESOURCES

Safieva Nigora Nurmaxamadovna
Gulistan State university

Annotation. The strategy "Uzbekistan – 2030" provides for the implementation of such tasks as bringing the average income per hectare to \$ 5,000 in terms of achieving the goal of a sharp increase in productivity and profitability in agriculture, bringing the volume of exports in the agricultural sector to \$ 10 billion per year, bringing productivity indicators on average 45-50 quintals from cotton, 80-85 the practical implementation of such tasks depends primarily on the state of use of irrigated land. It follows from this that this article will focus on improving the use of irrigated land.

Keywords: national economy, sectoral structure of the economy, agrarian economy, agricultural resources, agro-industrial complex, land resources, irrigated lands, land relations, land lease.

Kirish.

Aholi sonining o'sishi, yer, suv va energiya resurslariga bo'lgan talabning ortishi, shuningdek, iqlimning keskin o'zgarishi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga ta'sir etuvchi asosiy omillardir. So'nggi yillarda mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash bo'yicha bir qator choralar amalga oshirilishi natijasida O'zbekiston dunyoda egallagan o'rnni mustahkamlashga erishdi va bosqichma-bosqich global reytinglarda o'z mavqeini yaxshilab oldi. O'zbekiston Respublikasi 2018 yilda Global ochlik indeksi bo'yicha 119 mamlakat orasida 52- o'rinni egallab, 12,1 ko'rsatkich bilan «mo'tadil» darajaga erishdi. Biroq, aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlami uchun oziq-ovqat mahsulotlari ta'minoti barqarorligiga erishish, kam daromadli oilalarning xarid qobiliyatini oshirish, mahsulotlar narxi va miqdori keskin o'zgarishining oldini olish hal etilishi zarur bo'lgan muammolardan hisoblanadi. Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar unumdar yerkarta taalluqli bo'lib, umummilliy boylik, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning asosiy vositasi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi bo'yicha jami yerlar 44 892,4 ming hektarni tashkil etib, yerlardan foydalanish maqsadi va tartibiga ko'ra 8 ta toifaga bo'linadi, jumladan, qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlar, aholi punktlarining yerlari, sanoat, transport, aloqa, mudofaa va boshqa maqsadlarga mo'ljallangan yerlar, tabiatni muhofaza qilish, sog'lomlashtirish va rekreatsiya maqsadlariiga mo'ljallangan yerlar, tarixiy-madaniy ahamiyatga molik yerlar, o'rmon fondi yerlari, suv fondi yerlari; zaxira yerlar.

Jahon iqtisodiyotining rivojlanish sur'atlari shundan guvohlik beradiki, kishilik jamiyatining barcha soha va jahhalari, ayniqsa global iqlim o'zgarishi natijasida sayyoramizning ko'plab hududlarida keng avj olayotgan qashshoqlik va ocharchilikka barham berishning asosiy omillaridan biri sifatida qishloq xo'jaligi mahsulotlari etishtiruvchi, shuningdek ularga turli yo'naliishlarda xizmat ko'rsatuvchi sub'ektlarning xo'jalik faoliyatini innovatsiyalar asosida tashkil etish strategik ahamiyat kasb etgani holda, ushbu jarayonni uzluksiz takomillashtirish davr talabiga aylanmoqda.

Muhim strategik tarmoqlardan biri sifatida qishloq xo'jaligining vazifasi - mamlakatda, shuningdek jahon miqyosida oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdan iboratdir. Goldman Sachs xalqaro konsalting kompaniyasining ma'lumotlariga ko'ra, BMT 2050-yilga borib dunyo aholisi 9,8 mlrd. kishiga etishini, buning uchun oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmini 70 foizga oshirish kerakligini bashorat qilmoqda. BMT, XVJ, Jahon banki kabi bir qator nufuzli xalqaro tashkilotlar dunyoda oziq-ovqat inqirozi yanada chigallashishini, buning uchun qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish, sohaga innovatsiyalarni izchil joriy etish, ilmiy-tadqiqotlarni yanada jonlantirish zarurligini ta'kidlashmoqda.

Yer munosabatlari borasida amalda tarkib topgan tizim undan foydalanish samaradorligi va raqobatbardoshligini oshirish borasida yangicha yo'naliishlarni izlab topish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmni takomillashtirishni talab qiladi. Yer munosabatlarni tahlil qilish O'zbekistonda bu borada tub islohotlar amalga oshirilayotganligini, turli xil tabiatga ega bo'lgan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarning ta'siri ostida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish borasida jiddiy xatarlar vujudga kelayotganligini ko'rsatmoqda. Bu yerga egalik qilish shakllari va turlarining o'zgartirish, yerdan foydalanish borasida huquqiy va iqtisodiy munosabatlarni tartibga solish, yerdan foydalanish samaradorligini oshirish borasida tizimli chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligidan dalolat beradi

Adabiyotlar sharhi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish samaradorligi qo'llaniladigan qishloq xo'jaligi texnologiyalarining mukammallik darjasasi va intensivlik darajasiga bog'liq bo'lib, u nafaqat ishlab chiqarish rentabelligining maqbul darjasasi, balki tuproq unumdarligini oshirishni ham ta'minlashi lozim bo'ladi (Merkulova, 2015).

Merkulova va Vyazov (2015) qishloq xo'jaligi sohasida iqtisodiy samaradorlikni baholash uchun ham qiymat va ham tabiiy ko'rsatkichlardan foydalanish lozimligini ta'kidlaydilar. Mazkur mualliflar asosiy ko'rsatkichlarga yerning rentabelligi, yer sig'imi va yer qaytmi kabi ko'rsatkichlarni kiritishadi, bunda ular mazkur ro'yxatni tarmoq va faoliyat turi bo'yicha hisoblangan yalpi qo'shilgan qiymat hajmi bilan to'ldiradilar (Merkulova, 2015). Shuningdek, ular yerni shudgorlash darjasasi, hosildorlik, o'g'itlash va muayyan bir ekin turini bir gektarga ekishda ozuqa moddalari olish kabi ko'rsatkichlarning muhimligini tan olishadi.

Joriy va taqqoslanadigan narxlarda yer maydoni birligiga yalpi mahsulot emas, balki tovar mahsulotlar ishlab chiqarish Xanbaev va Daibova (2016) tomonidan yerdan foydalanish iqtisodiy samaradorligining asosiy va umumlashtiruvchi ko'rsatkichi sifatida baholanadi (Xanbaev, 2016).

Bir qator mualliflarning yani Alakoz, Ovsyannikov (2016) fikricha yer resurslaridan oqilona foydalanishni ta'minlash vositalaridan biri-bu hududning yer tuzilishi bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish hisoblanadi (Alakoz, 2016).

Adabiyotlar tahlilidan shunday xulosaga kelish mumkinki, yerdan foydalanishni tashkil etish yerdan foydalanishda eng yuqori iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik samaradorlikka erishishga qaratilgan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish bo'yicha izchil chora-tadbirlar tizimini ifoda etadi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqotning nazariy va uslubiy asoslarini mahalliy va xorijiy olimlarning yerdan foydalanish borasidagi munosabatlarni tartibga solishga bag'ishlangan ilmiy izlanishlari natijalari, qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan xukumat dasturlari va yo'l xaritalari tashkil qiladi. Tadqiqot ishining uslubiyoti sug'oriladigan yerkardan samarali foydalanish bog'liq bo'lgan munosabatlarni tizmli-funktsonal va dialektik o'zaro bog'liqlikda tadqiq qilishda namoyon bo'ladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etishning asosiy ustuvor yo'nalishlari quyidagilar taklif qilingan:

- agrosanoat majmui sohasida band bo'lgan hududlardan foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar majmui ishlab chiqilgan;
 - agrosanoat majmui sohasida band bo'lgan hududlardan foydalanishni boshqarishning uslubiy yondashuvlari belgilangan;
 - bo'sh turgan hududlarni biznes aylanmasiga jalb qilish vositalari taklif etiladi;
 - optimallashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui qishloq xo'jaligini raqamli o'zgartirish sharoitida agro-innovatsiyalarni joriy etish taklif etiladi.
- Bugungi kunda qishloq xo'jaligini tartibga solish, qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilarini rag'batlantirish borasida davlatning islohotchilik o'rni oshib borayotgan bo'lsa-da, oziq-ovqat xavfsizligi muammoi to'lig'icha o'z yechimini topayotgani yo'q.

Bugungi kunda qishloq xo'jaligi sohasida band bo'lgan yerkardan samarali foydalanish, sug'oriladigan yerkarning qishloq xo'jaligi aylanmasidan chiqib ketishining oldini olish borasida amalga oshirilayotgan ishlar etarlicha emas.

Shu munosabat bilan biz qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etish bo'yicha quyidagi yo'nalishlar bo'yicha chora-tadbirlar majmuini taklif qilamiz:

- yerdan foydalanishni tashkil etishni takomillashtirishda davlatning etakchi rolini kuchaytirish;
- aqli qishloq xo'jaligi tizimini faol joriy etish va ulardan foydalanish;
- qishloq xo'jaligi yerlaridan samarali foydalanish uchun ishlab chiqarish omili sifatida axborotlashtirishni keng joriy etish;
- qishloq xo'jaligining asosiy tabiiy-iqtisodiy resursi sifatida yerdan muvozanatli foydalanishga qaratilgan tashkiliy, iqtisodiy va ekologik mexanizmlarning ta'sirini kuchaytirish.

Erni boshqarishni maqbullashtirish sohasidagi davlatning ustuvorligi saqlanib qolishi kerak, bu talab ko'p ukladli boshqaruvni amalga oshirishga imkon beradigan bozor iqtisodiyoti tamoyillariga zid emas. Agrosanoat majmuasi ehtiyojlari uchun foydalanimuvchi yer maydonlarini xususiyashtirish sohasida milliy manfaatlarning ustuvorligi yer resurslarini boshqarish, ularni tashxislash, foydalanish jihatlarini prognoz qilish, degradatsiya ahamiyati omillari ta'siridan himoya qilishni ta'minlashi lozim.

Albatta, bunday qarashni amalga oshirish qishloq xo'jaligidan oqilona foydalanishga bag'ishlangan davlat va va mintaqaviy darajada yo'l xaritalarini tuzish bo'yicha ishlarni davom ettirish zaruratinini taqozo qiluvchi to'laqonli institutsional bazani yaratishni talab qiladi, bu esa agrosanoat majmuvi ehtiyojlari uchun foyda-lanilayotgan yer maydonlarini boshqarishda yo'l qo'yilishi mumkin bo'lgan xatolardan qochish imkonini beradi.

Hech bir shubhasiz, normativ-huquqiy hujjatlar quyidagi ko'rinishdagi tadbirlarni o'tkazish zaruriyatini ta'kidlashi lozim:

- agrosanoat majmuasi ehtiyojlari uchun mo'ljallangan yer maydonlaridan foydalanishni boshqarish jihatlari;
- qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun foydalanimayotgan yer maydonlarining ekologik jihatlari, ular o'z navbatida tashkiliy jihatdan tuproqning ifloslanishni kamaytirish va unumdarligini oshirishga qaratilgan bo'lishi lozim;

- imkon qadar tuproq sifatini ni yaxshilash bilan bog'liq yechimlarga asoslangan agroinnovatsiyalarni keng joriy etish;
- agrosanoat majmuasi ehtiyojlari uchun foydalanilayotgan yer maydonlarining texnologik jihatlari;
- yer tuzish va yer resurslarini boshqarish jihatlari.

Bunday chora-tadbirlarni to'laqonli amalga oshirish yer reestrining mavjudligini talab qiladi, bu o'z navbatida ma'lumotlarni muntazam yangilash bilan tasdiqlanadi.

Muayyan iqtisodiy vaziyatlarda u qishloq xo'jaligi korxonalarining rentabelligini oshirish borasida ko'zlangan iqtisodiy vazifaga zid kelishi mumkin bo'lsa-da, ammo tuproqni muhofaza qilish, yerni boshqarish va boshqa chora-tadbirlarni amalga oshirish uzoq muddatli va o'zini iqtisodiy jihatdan oqlovchi strategik vazifa hisoblanadi.

Shu tariqa, qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etish bo'yicha taklif etilayotgan chora-tadbirlar majmui yer resurslaridan oqilona foydalanishni tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar majmuini ta'minlaydi degan xulosaga kelish mumkin.

Davlat vakolatlari sohasidagi qarorlarni qabul qilishning mezo darajasida yer resurslaridan maqbul foydalanish masalalari hududlar faoliyatining yagona jihatidan kelib chiqqan holda amalga oshirilishi lozim. Agrosanoat majmuasi ehtiyojlari uchun foydalanilayotgan yer maydonlaridan foydalanishni rejalashtirish va tashkil etish milliy iqtisodiyotning boshqa sohalari faoliyatiga zarar etkazuvchi oqibatlarni keltirib chiqarmasligi lozim. Er resurslarini boshqarish muammolariga kompleks yondashuvning natijasi yerni boshqarish va hududiy rejalashtirishning yagona sxemasi – mintaqaning yer siyosatini amalga oshirishning bashorat qiluvchi vositasi bo'lishi lozim.

Bunday sxemalar mahalliy ijro etuvchi hokimiyatlarini hududlarning holati va ularni uzoq muddatli istiqbolda rivojlantirish imkoniyatlari to'g'risida ishonchli va to'liq ma'lumot bilan ta'minlash maqsadida yaratiladi. Hududlarni va umuman mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasini ishlab chiqish doirasida milliy xavfsizlik masalalari bo'yicha asosiy qarorlar yer resurslarining holati to'g'risidagi ma'lumotlarni hisobga olmasdan qabul qilinishi mumkin emas.

Qishloq xo'jaligi ehtiyojlari uchun band bo'lgan hududlarning axborot bazasini yaratishning pirovard maqsadi yer resurslaridan O'zbekiston hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning umumiy vektoriga muvofiq foydalanishni maqbullashtirishdan iborat bo'lishi lozim. Erlar nafaqat rentabellikni hisobga olgan holda, balki yer maydonlaridan oqilona foydalanish va muhofaza qilishga e'tiborni qaratgan holda maqbul taqsimlanishi lozim.

Agrosanoat majmuasi ehtiyojlari uchun foydalaniluvchi hududlardan maqbul foydalanishni prognozlash va tashkil etish bo'yicha ishlar natijasida amalga oshiriladigan chora-tadbirlar majmui yer resurslarini tabiiy rayonlashtirish to'g'risidagi ma'lumotlarni tahlil qilish va yer maydonlarining maqbul tuzilishini aniqlash asosida milliy iqtisodiyotning turli sohalarini boshqarish sub'ektlari manfaatlariga zid bo'lмаган sharoitda, milliy oziq-ovqat xavfsizligi va chorvachilik sanoatining ozuqa bazasiga bo'lgan ehtiyojlarini hisobga olgan holda yaratilishi lozim.

Xo'jalik yuritishning o'ziga xos xususiyatlarining mavjudligi qishloq xo'jaligi yerlarini rivojlantirish va ulardan foydalanish borasida muayyan cheklolvar qo'yadi. Avtonom hududiy tuzilmaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish yo'nalişlarini aniqlash borasida: tuproq unumdarligi, yer tuzilishi, ishlab chiqarish xarajatlari, chorva mollari mahsuldarligi, bozor sig'imi, mahsulot rentabelligi kabilarni tahlil qilish talab qilinadi.

O'zbekiston Respublikasi Er kodeksining 3-bobi 11-moddasida "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallangan yerlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish qishloq xo'jaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirishga muvofiq amalga oshirilishi va qishloq xo'jaligining tabiiy moslashuvi jihatidan yerlarni rayonlashtirish to'g'risidagi normativ hujjatlarning talablari yer uchastkalarini qonuniy saqlash vazifalariga taalluqli bo'lib, yuridik va jismoniy shaxslarga ana shu uchastkalarni berish shartlari jumlasiga kiritilishi" belgilab qo'yilgan.

Ushbu holatda tayyorgarlik ishlari asosan ma'lumotlar bilan operatsiyalarni o'z ichiga oladi. Bunda iqtisodiy va ijtimoiy, tashkiliy, ekologik, texnologik jihatdan ko'rib chiqilayotgan hududdagi ishlarning holati to'g'risida xulosa chiqarishga imkon beruvchi ma'lumotlarni to'plash, umumlashtirish va birlamchi qayta ishlash amalga oshiriladi. Yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ularni boshqaruv ma'lumotlariga aylantirish uchun oldindan birlamchi va olingan ko'rsatkichlarning keng to'plami shakllantiriladi. Tabiiy sharoitlar, yer resurslarining o'rganilganlik darajasi, hududda amalga oshirilayotgan yerga bo'lgan egalik borasidagi jarayon natijalari, ekologik holat qayd qilinadi.

Ma'muriy – hududiy tuzilmalarning o'ziga xos xususiyatlari boshqa turdag'i ko'rsatkichlarni aniqlashtirish borasida ma'lumot to'plashni talab qilishi mumkin. mazkur bosqichning natijasi o'laroq, kartografik materiallar to'planadi.

Ikkinci va yerdan foydalanish samaradorligini oshirish nuqtai nazaridan asosiy bo'lgan bosqich-bu tabiiy va qishloq xo'jaligi jihatidan rayonlashtirish bosqichi hisoblanadi. Rayonlashtirish jarayonida ko'rib chiqilayotgan hudud uning chegaralaridagi turli xususiyatlarning bir xilligi yoki turlichaligi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Turli-tumanlik aniqlangan taqdirda, o'xshash xususiyatlar bilan birlashtirilgan va boshqalardan farq qiluvchi alohida hududiy birliklar -taksonlar ajratiladi.

Alovida taksonlarga nisbatan turli darajadagi texnologik va boshqaruvi qarorlari qabul qilinadi, harakatlar rejalarini va rejalarini amalga oshirish borasida maqsadli ko'rsatkichlar ishlab chiqiladi. Ko'rinish turibdiki, rayonlashtirish parametrlarini tanlash va har bir jihat borasida hududni bo'laklarga ajratish maqsadga muvofiqlik tamoyili bilan mos kelishi lozim. Haddan tashqari ortiqcha bo'laklarga ajratish taksonlar chegarasida agrobiologik xususiyatlarni aniqlash imkoniyatlarini pasaytiradi va aksincha taksonlarni kerakli darajada bol'aklarga ajratilmasligi texnologik jarayonlarni bitta ajratilgan birlik chegaralarida maqbullashtirish borasida yagona chora-tadbirlarni ishlab chiqishga imkon bermaydi.

Ma'muriy-hududiy birliklar doirasida rayonlashtirish zonalar va shuningdek, agrar sohaning xo'jalik birliklari doirasida joylashgan zonalarni farqlash maqsadida amalga oshiriladi, bu o'z navbatida qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishning maqbul usullari bo'yicha umumiyoq tavsiyalar, shuningdek bir qator tegishli masalalar bo'yicha yechimlar ishlab chiqishga imkon beradi.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni rejashtirishni tashkil etish borasida tavsiya etilgan uslubiy asoslar quyidagilarga imkon beradi:

- hududni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning tanlangan yo'naliishiga muvofiq yerlarni taqsimlash mexanizmini takomillashtirish;
- agrosanoat majmuasining yer salohiyatidan foydalanishni hududiy tashkil etishni maqbullashtirish yo'naliishlarini belgilash;
- iqtisodiy faoliyat sub'ektlarining yuqori darajada daromad olishlariga imkon yaratgan holda, hududiy birlik chegaralarida yerdan foydalanishni tashkil etish;
- qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni maqbullashtirish yo'llarini izlab topish borasida ilmiy tadqiqot va innovatsion yo'naliishlarni belgilash.

Bo'sh yerlarni xo'jalik muomalasiga qaytarish, shuningdek, yangi uchastkalarni o'zlashtirish bir xil hatti-harakat emas, ular shartli ravishda bir qator chora-tadbirlar majmuidan iborat bo'lgan uchta asosiy guruhga ajratish mumkin :

- bunday uchastkalarning mavjudligi va xususiyatlari to'g'risida ma'lumot bazasini shakllantirish, to'ldirish, yangilash va ulardan har qanday manfaatdor shaxslarning foydalana olishlarini ta'minlash;
- yerni iqtisodiy aylanmaga jalb qilishdan ko'proq manfaatdor shaxslarga foydalanish uchun berish;
- yangi jalb qilingan uchastkalarda yerdan foydalanishni tashkil etishning eng samarali va ayni paytda puxta usullarini huquqiy jihatlan nazorat qilish va iqtisodiy rag'batlantirish.

Xulosa va takliflar.

Taklif etilayotgan chora-tadbirlarni tizimli amalga oshirish quyidagi natijalarga erishish imkonini beradi:

- yer resurslarining holatini sifat, miqdor va huquqiy jihatdan baholash, shu asosda yerning holati to'g'risida dolzarb va ishonchli ma'lumotlarni shakllantirish;
- yerdan vijdonan va samarali foydalanuvchilar qatlamini yaratish;
- yerdan foydalanishning iqtisodiy mexanizmi samaradorligini oshirish, uni investitsiyalar uchun yanada jozibador qilish;
- yer solig'ining mahalliy byudjetlarga undiriluvchanligini oshirish.

Davlat hokimiyati organlari va yerdan foydalanuvchilarning manfaatlarini ishlab chiqarish rentabelligini ta'minlash shartlaridan kelib chiqqan holda ajralmas muvozanatlash muammosi faqatgina agrobiznesning funktsional sohasi sifatida ularning huquqiy maqomini mustahkamlash orqali yer resurslari bazasini yaratish orqali hal qilinadi (Юрай, 2018).

Sug'oriladigan qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanish borasida ko'zga tashlanayotgan inqirozli holatlarni bartaraf etish maqsadida har bir hudud bo'yicha foydalanilmayotgan yer maydonlarini qishloq xo'jaligi aylanmasiga jalb qilish borasida "yo'l xarita"lar ishlab chiqish talab qilinadi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 05.04.2023 yildagi "2023 yilda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlashni kengaytirish va qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-113 sonli Qarori imzolandi. Hujjatga ko'ra, 2023 yilda [100 ming gektardan ziyod yer maydonlari](#) qishloq xo'jaligi sohasiga qayta foydalanishga kiritiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasida chorvaga ozuqa etishtirish uchun aholiga dehqon xo'jaligi yuritish maqsadida beriladigan yerlarning maydoni 2 gektardan 5 gektarga oshiriladi.

2023 yil 1 maydan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reestri"ga kiritilgan jismoniy shaxslar [ayrim tovarlarning](#) chakana savdo obyektlarida xaridini amalga oshirganda va ushbu xaridni soliq organlarining maxsus mobil ilovasida xarid chekining fiskal belgisini QR-kod yordamida skanerlash orqali ro'yxatdan o'tkazganda, ularning bank kartalariga har oy yakuni bilan xarid summasining 1 % miqdoridagi to'lov o'rniغا, xarid summasida to'langan QQS summasi qaytariladi.

Qaror bilan 2023 yilga mo'ljallangan chora-tadbirlar dasturi tasdiqlangan bo'lib, unda quyidagi tadbirlar ko'zda tutilgan:

"Oziq-ovqat xavfsizligi to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish;

"Qishloq xo'jaligi kooperativi" to'g'risida qonun qabul qilish;

hududlarda 10 ta agrologistika markazlari va 41 tasovutkichli sig'implarni tashkil etish;

"E-IJARA" tizimi orqali aholiga 92,6 ming hektar yer maydonini dehqon xo'jaligini tashkil etish maqsadida ochiq elektron tanlov orqali ajratish;

Qoraqalpog'iston Respublikasi va Qashqadaryo viloyatida Avstralaliyaning "Rubikon" kompaniyasi tajribasi asosida suv resurslarini boshqarish jarayonini avtomatlashtirish loyihasini amalga oshirish;

suv resurslaridan foydalanishni raqamlashtirish;

Qishloq xo'jaligi vazirligining Geoaxborot tizimini Internet tarmog'iga joylashtirish va barcha foydalanuvchilar uchun erkin foydalanishni yo'lga qo'yish.

Hudud yer resurslaridan foydalanish samaradorligini oshirish va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmini oshirish "yo'l xaritasi"ni amalga oshirishning maqsadi sifatida baholashimiz mumkin.

Belgilangan maqsadga erishish borasida o'zaro bog'liq vazifalar majmuini bajarilishiga erishish lozim:

- qishloq xo'jaligi ahamiyatiga ega bo'lgan ammo foydalanilmayotgan yer uchastkalarini qishloq xo'jaligi aylanmasiga jalb qilish;
- tuproq unumdorligini saqlash va boyitish;
- yer ulushlari va yer uchastkalarining muoamaladan chiqib ketishini oldini olish;
- agrosanoat majmui sohasida ish o'rnlari sonining qisqarishiga yo'l qo'ymaslik.

Yerdan foydalanishni agroekologik va iqtisodiy jihatdan asoslash qishloq xo'jalik korxonalarida yer tuzish loyihalarning amaliy iqtisodiy tahlil orqali amalga oshiriladi. Ushbu bosqichlarning barchasi qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining o'zgargan institutsional va iqtisodiy sharoitlariga javob beradigan yangi tamoyillar asosida qishloq xo'jalik korxonalarida yer tuzish loyihalari asnosida ishlab chiqiladi. Ekin maydonlarining alohida ish maydonlarining chegaralarini loyiha-lash, aslida, tuproq unumdorligini boyitishni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish xarajatlarining rasmiylash-tirilgan tavsifiga asoslangan amaliy iqtisodiy tahlil muammosini hal qilishdir. Chegarani belgilash borasida loyiha yechimining samaradorligi ko'rsatkichlariga bitta ish hududidagi tuproq unumdorligi darajasi, shuningdek, hosilni etishtirish uchun texnologik operatsiyalarini bajarish xarajatlari bog'liq bo'lgan ekinlarning texnologik xususiyatlari ta'sir qiladi.

Aniq qishloq xo'jaligi yerdan foydalanish sohasidagi ilg'or texnologik yechimlardan biri bo'lib, u bir vaqtning o'zida xarajatlarni tejash va dala ishlab chiqarishda moliyaviy daromadlarni oshirish bilan bog'liq iqtisodiy maqsadlarga erishish, shuningdek, ekinlarni ekologik jihatdan toza etishtirishni ta'minlashga imkon beradi.

Aniq qishloq xo'jaligi asosida qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishni tashkillashtirish bir qator muammolarni keltirib chiqaradi, chunonchi aniq qishloq xo'jaligi texnologiyalarini joriy etish katta moliyaviy va iqtisodiy resurslarni talab qiladi. Bunday texnologiyalardan foydalanishni kichik va mayda ishlab chiqaruvchilar o'zlariga ravo ko'ra olmaydilar.

Bugungi kunda axborotlashtirish shunchaki qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni tashkil qilish omili emas, balki iqtisodiyotning turli soha va tarmoqlarida ishlab chiqarish omillari, xususan yerdan oqilona foydalanishni tashkil etish va innovatsion rivojlantirishning muhim usuliga aylanmoqda.

Qishloq xo'jaligi yerlaridan foydalanishni tashkil etishni takomillashtirishning asosiy yo'nalishlari yer fondini tartibga solishda davlatning etakchi rolini kuchaytirish; aqli qishloq xo'jaligi tizimlaridan foydalanish va ishlab chiqarishni axborotlashtirishni kengaytirish; yerkarni toifalarga ajratish asnosida yerkarning sifat va miqdoriy xususiyatlarini yangilash bo'yicha ishlarni amalga oshirish; foydalanilmayotgan qishloq xo'jaligi yerlarini qayta tiklash va shu kabilar hisoblanadi.

Adabiyotlar/Litteratura/Reference:

Алакоз В.В. (2016) Организация использования сельскохозяйственных земель. Провозглашение и реализация / В.В. Алакоз, Д.А. Овсянников // Землеустройство, кадастровый мониторинг земель. -. - №9. - С. 13-20.

Меркулова Е.Ю. (2015) Методика оценки эффективности использования земельных ресурсов региона / Е.Ю. Меркулова, Г.Б. Вязов // Вестник Тамбовского университета. Гуманитарные науки. - №2(142). - С. 55-65.

Меркулова Е.Ю. (2015) Методика оценки эффективности использования земельных ресурсов региона / Е.Ю. Меркулова, Г.Б. Вязов // Вестник Тамбовского университета. Гуманитарные науки. - №2(142). - С. 55-65.

Ханбаев Т.Г. (2016) Эффективность использования земли в сельском хозяйстве с применением системы показателей / Т.Г.Ханбаев, Л.С.Даирова // Горное сельское хозяйство. -. - №1. - С. 31-35.

Югай А.М. (2018) Землепользование в аграрной сфере / А.М. Югай // АПК: Экономика, управление.. № 4. С. 56.